

"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi VI "BYD" Toshkent xalqaro marafonida faol ishtirok etdi

// 23.04.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-jamoasi-vi-byd-toshkent-xalqaro-marafoni> da



21-aprel kuni poytaxtimizda 45 ta mamlakatdan 5 mingga yaqin havaskor yuguruvchi va professional sportchilar ishtirokida VI "BYD" Toshkent xalqaro marafoni bo'lib o'tdi.

Marafonda O'zbekiston Respublikasi Sport vaziri A.Ikramov, O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi bosh kotibi O.Kasimov, O'zbekiston triatlon federatsiyasi raisi V.Mahmudov, O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi raisi o'rinbosari A.Abduvaliyev, "BYD LLC"ning Markaziy Osiyo bo'yicha bosh direktori o'rinbosari Ivan Sao ishtirok etdi.

VI "BYD" Toshkent xalqaro marafoni 4 ta masofa bo'yicha o'tkazildi va umumiy mukofot jamg'armasi 720 mln so'mni tashkil etdi.

Ahamiyatlisi, mazkur keng miqyosli marafonda "O'zkimyosanoat" AJ jamoasi ham faol ishtirok etdi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati